

**XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “O‘YIN” ROMANIDA BOLA
PSIXOLOGIYASINING BADIY TALQINI**

Tursunpo‘latova Marjona

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” romanidagi obrazlar tabiati psixologik metod asosida tahlil qilingan. Asarda o‘yin tasvirlari bola ongining shakllanishi, ruhiy kechinmalarining tartibga solinishi hamda o‘zini anglashning rivojlanishida muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda roman kompozitsiyasi, tasavvur va real voqelikning qorishishi, ichki monologlar va ramziy obrazlarning bola idrokiga xos xususiyatlarni aks ettirishdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *bola psixologiyasi, psixologik tasavvur, ramziylik, ichki monolog, bolalik talqini.*

Abstract: *This article analyzes the nature of images in the novel "Game" by Khurshid Dostmuhammad based on psychological methods. In the work, images of the game appear as an important psychological mechanism in the formation of the child's consciousness, the regulation of mental experiences, and the development of self-awareness. The study highlights the composition of the novel, the mixing of imagination and reality, the role of internal monologues and symbolic images in reflecting the characteristics of child perception.*

Keywords: *child psychology, psychological imagination, symbolism, internal monologue, interpretation of childhood.*

KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, ayniqsa, bola psixologiyasining badiiy talqini alohida yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Mustaqillikdan keyingi adabiy jarayonda individual ong, shaxsiy tajriba, o‘zlikni anglash jarayonlarini chuqur psixologik tadqiq etishga intilish kuchaydi. Shu nuqtayi nazardan Xurshid Do‘stmuhammad ijodi, xususan, uning “O‘yin” romani, bolalik fenomenining murakkab ruhiy qatlamlarini yoritishga qaratilgan yondashuvi bilan alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Asarda muallif bolalikni faqat hayotning ma’lum bir bosqichi sifatida emas, balki inson ruhiyatining shakllanishini belgilab beruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiluvchi psixologik makon sifatida talqin etadi.

Romanda o‘yin motivi markaziy struktura vazifasini bajarib, bola idrokining tabiiy shakllanishi, xayol va reallik o‘rtasidagi dinamik bog‘lanish, shaxsiy kechinmalarni qayta ishlash jarayoni orqali o‘z badiiy yukini topadi. O‘yin bola hayotining ajralmas qismi

bo'lishi bilan birga, uning hissiy va kognitiv rivojlanishida, ichki ziddiyatlarni yengishda, tashqi muhitga moslashishda o'ziga xos psixologik mexanizm vazifasini bajaradi. Shu sababli roman strukturasini bola ongining tasviriga yo'naltirilgan psixologik asar namunasi sifatida baholash mumkin.

Bola obrazining ichki monologlar, tasavvur va xotira parchalari, ramziy o'yin mazmunlari orqali ifodalanishi muallifning psixologik tasvir uslubidagi mahoratini ko'rsatadi. Asarda o'yin jarayoni nafaqat syujetni harakatlantiruvchi element, balki qahramonning ong osti jarayonlarini, qo'rquv va umidlarini, ruhiy ehtiyojlarini ifodalovchi badiiy modelga aylanadi.

ASOSIY QISM

Xurshid Do'stmuhammadning "O'yin" romani o'zbek adabiyotida bolalik fenomenining psixologik talqiniga bag'ishlangan eng muhim badiiy matnlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Asar markazida o'yin jarayoni turadi; biroq muallif uni oddiy ko'ngilochar faoliyat sifatida emas, balki bola ongining shakllanishi, ruhiy kechinmalarining tizimlashuvi, shaxsiy identifikatsiya jarayonining namoyoni sifatida talqin qiladi.

Roman bola ongining tasviriga asoslanganligi tufayli undagi hodisalar ko'pincha parcha-parcha, tasavvur va real voqelikning qorishib ketgan shaklida taqdim etiladi. Bu uslub bola idrokiga xos bo'lgan voqelikni sinestezik qabul qilish, tasvirning bir momentdan ikkinchisiga mantiqsiz ko'chishi, hissiy reaksiyaning tez almashinishi kabi psixologik xususiyatlarni badiiy tarzda qayta yaratadi. Qahramonning ichki monologi, tasavvuri va ichki qo'rquvlari o'yin jarayonida jonlanadi. Shu tariqa o'yin bola uchun nafaqat tashqi faoliyat, balki ichki kechinmalarni modellashiruvchi psixologik maydonga aylanadi.

Asarda o'yin tasviri bola ongining himoya mexanizmi sifatida ham talqin qilinadi. Psixologiyada o'yin stressni yengillashtiruvchi, ruhiy ziddiyatlarni qayta ishlovchi, o'zini anglashni mustahkamlovchi jarayon sifatida o'rganiladi. Muallif ushbu nazariy tushunchalarni badiiy shaklga ko'chirgan holda, qahramonning real hayotda uchraydigan xavotirlarini, qo'rquvlarini, tushunmovchiliklarini o'yin vositasida bartaraf etishga intilishini ko'rsatadi. O'yin bola uchun og'ir holatlardan qochish emas, balki ularni boshqa kodda tasniflab, psixik muvozanatni tiklashga qaratilgan faol jarayondir. Shu bois o'yin romanda ruhiy kompensatsiya vositasi sifatida yetakchi badiiy figura bo'ladi. "O'yinsiz kun yo'q, soat yo'q, lahzayam yo'q. Negadir kattalar shuni tushunishmaydi, chaqirishgan zahoti o'yinni to'xtatib, "xo'p" degancha uyiga yo'l olgan bola ma'qul bola, yaxshi bola hisoblanadi ularning nazarida, vaholangki, har qanday ma'qul-yaxshi bola ham o'yindan uzilib ketishi oson ko'chmaydi, ming bir azob-uqubatda majburligidan "Yo'q" deya olmaganidan uyiga ravona bo'ladi, o'yinni tashlab ketayotgan bolaning ichi o'rtanadi,

mayishadi, eziladi. Dunyo zimistonga aylanadi uning nazarida. Ayrimlarning baralla yig'lab yuborishi shundan."

Bundan tashqari, asardagi o'yin jarayoni bola shaxsiyati shakllanishidagi ijtimoiy omillarni yoritish imkonini beradi. Qahramon o'yin orqali o'z atrofidagi kattalar dunyosini, uning qoidalarini, ijtimoiy rollarni, taqiqlarni va imkoniyatlarni o'ziga xos tarzda idrok qiladi. Bola dunyoqarashining shakllanishida kattalar bilan bo'ladigan muloqotlar, ularning munosabatlari va ijtimoiy me'yorlarning talqini muhim o'rin tutadi. Roman aynan shu jarayonni psixologik tasvir orqali ochib beradi: bola o'yin davomida o'zi mustaqil yaratgan ramziy olamda kattalar dunyosini qayta talqin qiladi, unga mos ravishda o'z "men"ini shakllantiradi.

Asarda tasavvur, tush va xotira komponentlarining doimiy almashinuvi bola ongining chegaralanmagan moslashuvchanligini ko'rsatadi. Bola ongida vaqt konsepti barqaror emas; shu sababli o'tmish, hozirgi holat va tasavvur qilina yotgan kelajak bir nuqtada to'qnashadi. O'yin esa ushbu vaqt qatlamlarini birlashtirib turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Xurshid Do'stmuhammad o'yin orqali bola ongining rivojlanish bosqichlarini badiiy tasvirda ifodalaydi, shuningdek, o'yin jarayonini bolaning borliqni bilish va o'zini anglash shakliga aylantiradi.

Shuningdek, "O'yin" romani bolalikning ijtimoiy-psixologik makon sifatidagi o'rni va uning insonga umr bo'yi ta'sir ko'rsatishi haqidagi konseptual fikrlarni ilgari suradi. Muallif bolalikni insonning ruhiy evolyutsiyasida asosiy poydevor sifatida tasvirlaydi. O'yin jarayonida qahramonning ongida shakllanayotgan obrazlar, qo'rquvlar, intilishlar uning keyingi hayot tajribalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi badiiy-falsafiy darajada ko'rsatib beriladi.

XULOSA

Xurshid Do'stmuhammadning "O'yin" romani bolalik olamini psixologik talqin qilish borasida o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Asarda o'yin motivining markaziy o'rin egallashi bola ruhiyatining tabiiy rivojlanish jarayonlarini badiiy tahlil qilish imkonini beradi. Muallif bola ongidagi fikrlarning parcha-parcha ya'ni tartibi yo'qligi, tasavvur va real voqelik o'rtasidagi o'tishlarning erkinligi, hissiy reaksiyalarning keskin almashinishi kabi psixologik xususiyatlarni o'ziga xos badiiy vositalar orqali aks ettiradi. Natijada roman bola tafakkurining murakkab psixodinamik mexanizmlarini chuqur anglashga xizmat qiladigan badiiy matnga aylanadi.

Romandagi o'yin tasviri real hayot tajribalarini qayta ishlovchi psixologik maydon sifatida talqin etilishi asarning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bola o'yin orqali atrof-olamni biladi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi, qo'rquv va xavotirlarini ramziy shaklda yengadi hamda o'z "men"ini shakllantiradi. Shuningdek, romandagi ichki monologlar va

ramziy qatlamlar bolalikning inson hayotidagi fundamental psixologik poydevor sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Do‘stmuhammad, X. O‘yin. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
2. Do‘stmuhammad, X. Saylanma: Asarlar to‘plami. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
3. Jo‘rayev, N. Badiiy matnda bola obrazining psixologik talqini. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2019/4.
4. O‘rinboyeva, G. O‘zbek bolalar adabiyotida psixologik tasvir masalalari. Toshkent: NMIU, 2017.